

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

“KIRITDI”

**O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
rektori**

Sherzodxon Qudratxo‘ja



“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**

K.A.Sharipov



**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60320100 – JURNALISTIKA (FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA)
TA‘LIM YO‘NALISHI UCHUN**

Toshkent – 2026

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'quv uslubiy kengashining 2026-yil 23-maydagi 5/3-son qarori bilan tasdiqlangan

Tuzuvchilar:

- R. Rayimjanov** – O'zJOKU o'quv ishlari bo'yicha prorektori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
- N. Muratova** – O'zJOKU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
- Sh. Taylakova** – Jurnalistika fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- O. Zakirova** – O'zJOKU PR va mediamenejment fakulteti dekani, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

- M. Mirsoatova** – O'zMU O'zbek tili filologiyasi fakulteti Jurnalistika kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- A. Matyakubov** – O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti dekani
- H. Ermatov** – "Ishonch", "Ishonch-Доверие" gazetalari bosh muharriri
- M. To'xtamirzayev** – "Sport", "Sport+" va "O'zbekiston futboli" gazetasi bosh muharriri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
- A. Ochilov** – Mudofaa vazirligi "Vatanparvar" Birlashgan tahririyati bosh muharriri
- Y. Mirzayeva** – "Dunyo bo'ylab" telekanali direktori

Kirish

60320100 – Jurnalistika ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda mazkur sohada talab etadiladigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Jurnalistika faoliyatini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- Yozma va og'zaki savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og'zaki muloqotga moyilligi.

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich abituriyentlarning ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha **og'zaki suhbat** bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

– abituriyentning bosma ommaviy axborot vositalari va internet saytlarida e'lon qilingan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a'zolari tomonidan o'rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abituriyent bilan suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yozilishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa tahlil etiladi hamda abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o'tkazgani aniqlanadi;

– jamiyat va uning turli sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar beriladi;

– O'zbekiston va jahonda yuz berayotgan so'nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo'yicha savollar berish orqali abituriyentning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalaridagi o'zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

– badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalaridagi namoyandalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so'nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

– suhbat davomida jurnalistika sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abituriyentning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abituriyentning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejaları, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatları aniqlanadi.

Og‘zaki suhbat davomida tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. Nima uchun jurnalistika sohasida talim olmoqchisiz?
2. Qaysi publisistlar yoki jurnalistlar faoliyatini kuzatgansiz, havas qilgansiz?
3. 10 yildan so‘ng jurnalistikada o‘zingizni qanday tasavvur etasiz?
4. Qanday badiiy asarni boshqalar ham o‘qishini tavsiya qilgan bo‘lardingiz? Nima uchun?
5. Qaysi ommaviy axborot vositalarini doimiy kuzatib borasiz? Soha yetakchilaridan kimlarni kuzatasiz?
6. Qanday pedagoglar qo‘lida o‘qishni xohlar edingiz?
7. Jamiyatda jurnalistikaning vazifasi nimalardan iborat?
8. Qaysi xalqaro ommaviy axborot vositalarini kuzatasiz? Til bilish darajangiz qanday?
9. Oliy talim dargohiga kelguncha ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilganmisiz?
10. Jurnalist va blogerning farqlarini ayta olasizmi?
11. 2026-yilga qanday nom berilgan?
12. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo‘lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsiga tegadigan bo‘lsa, nima qilasiz?
13. Jurnalistikada Sizni nima ko‘proq qiziqtiradi: ko‘nglingizdagi gaplarni yozishmi, xalq dardini o‘rganishmi yoki yaxshi oylik olishmi?
14. “Jurnalistning noni qattiq” degan ibora bor. Bunga munosabatingiz qanday?
15. Sizningcha, jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
16. Sizningcha sayt va ijtimoiy tarmoqning farqi?
17. Texnik jihatdan qurollangan jurnalistga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa, nimani olgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
18. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
19. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o‘qishdan nimalarni kutayapsiz?
20. Jurnalistika kasbmi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.
21. Gazeta deganda nimani tushunasiz? Gazetani ta‘riflab bering. Sport sohasiga ixtisoslashgan qaysi gazetalarni bilasiz?
22. Jurnal deganda nimani tasavvur qilasiz? Shu haqda gapirib bering. Sport sohasiga ixtisoslashgan qaysi jurnallarni bilasiz?
23. Radio nima? Siz radioni qanday tushunasiz?

24. Sizga qaysi OAV ko'proq yoqadi: gazeta, radio, televideniye yoki internet? Buning sababini tushuntirib bering.
25. Radiojurnalistlardan kimlarni taniysiz?
26. Televideniye nimasi bilan Sizni qiziqtiradi? Televideniye qanday tushunasiz?
27. Internet nima ekanligini tushuntirib bering.
28. Internet sayti nima?
29. Agar jurnalist bo'lib internet nashri ochsangiz, uning nomi, yo'nalishi va uslubi qanday bo'lardi?
30. Feyk xabar deganda nimani tushunasiz?
31. Feyk xabar tarqalishining oldini olish uchun qanday choralar taklif qilgan bo'lardingiz?
32. O'zbekistonda jurnalistlar, muxbirlardan kimlarni bilasiz? Ularning ijodida, chiqishlarida nimalar e'tiboringizni tortadi?
33. Jurnalist materiali insonni e'tiborini tortishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
34. Jurnalist bo'lsangiz qaysi mavzularda yozishni istardingiz? Nima uchun?
35. Siz bilgan jurnalistlar, muxbirlar ijodida, chiqishlarida nimalar sizga yoqmaydi va nima uchun?
36. Jurnalistikada qat'iy man etiladigan amallar nima?
37. Jurnalistikaning bugungi jamiyatda tutgan o'rni nimada deb o'ylaysiz?
38. "Jurnalistni oyoqlari boqadi" iborasini izohlang?
39. O'zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz?
40. Sizga biror OAVga muharrir sifatida 6 oy davomida ishlashni taklif qilishdi deylik. Qaysi turdagi va yo'nalishdagi OAV ni tanlaysiz?
41. Kelajakda jurnalist sifatida faoliyat olib bora boshladingiz, bir muddat o'tib, sizga oylik maosh bera olmaydigan vaziyatga tushib qolishdi. Siz ishlashda davom etasizmi?
42. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt sarflaysiz va qanday maqsadlarda?
43. Tanqidiy fikrlash deganda nimani tushunasiz?
44. Mediasavodxonlik nimani anglatadi va sizningcha u qanday ko'nikmalarni qamrab oladi?
45. Jurnalistikadan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?
46. Yurtimizda va jahonda yuz berayotgan muhim voqealarni sanang. Ularning qaysi OAV orqali kuzatib borasiz?

Ikkinchi bosqich ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– ijodiy insho mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Imtihonda beshta mavzu beriladi. Abituriyent ixtiyoriy asosda ulardan bittasi bo'yicha esse yozadi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda

muhrlangan maxsus konvertida qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlariga taqsimlaydi;

– ijodiy insho o'tkazilishi uchun **3 astronomik soat** vaqt belgilanadi;

– ijodiy insho betlari muhrlangan **12 varaqli daftarga** yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

– ijodiy inshoning hajmi **5 betdan 10 betgacha** deb belgilanadi;

– ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

– yozma ishlar faqat oliy ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

– tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni raqamlab, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

– ijodiy inshoga quyidagi yo'nalishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi;

– ijodiy imtihon natijalari 1 kundan so'ng e'lon qilinadi.

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – **93 ball**.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki suhbat jarayonidagi savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning **33,3 foizi, ya'ni 31 ball** belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni ijodiy inshoni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal balldan **66,6 foizi, ya'ni 62 ball** belgilanadi.

Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Og'zaki suhbatga 0 – 31 ballgacha qo'yish mumkin.

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika sohasi haqidagi tushunchalari boshlang'ich darajada, fikr bildirishda ishonchsizlik seziladi, media muhit bilan amaliy aloqasi deyarli yo'q, ammo kasbga qiziqishi mavjud	0 – 6 ball
2.	Jurnalistikaga qiziqishi shakllana boshlagan, ayrim OAV va jurnalistlar faoliyatidan xabardor, ijodiy urinishlari bor, bir nechta kichik materiallar tayyorlagan	7 – 13 ball
3.	Media sohasini muntazam kuzatib boradi, jurnalistikaning asosiy vazifalarini angelaydi, ijodiy ishlarida mustaqil yondashuv seziladi, turli jurnalistlar uslubini tahlil qila oladi	14 – 19 ball
4.	Jurnalistikaning jamiyatdagi ahamiyatini yaxshi tushunadi, mediadagi jarayonlarga tahliliy yondasha oladi, nashrlar bilan hamkorlik tajribasiga ega, jurnalistlar ijodi haqida asosli fikr bildiradi	20 – 25 ball
5.	Media sohasiga uzoq yillardan beri qiziqadi, tahririyat ish jarayoni va jurnalistik faoliyat mexanizmlarini yaxshi biladi, ijodiy faolligi yuqori, materiallari muntazam e'lon qilib borilgan, kasbiy mulohazalari puxta va mustaqil	26 – 31 ball

Ijodiy inshoni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	Mavzu talabiga javob bermaydi, fikrlar tizimsiz, til va uslubda juda ko'p kamchiliklar mavjud	0 ball
2.	Mavzu yuzaki yoritilgan, tahlil yetarli emas, fikrlar umumiy bayon qilingan, uslubiy va imloviy xatolar ko'p uchraydi	1–8 ball
3.	Mavzu qisman ochilgan, muallifning shaxsiy munosabati kam seziladi, fikrlar yetarlicha asoslanmagan	9–16 ball
4.	Mavzuga munosabat bildirilgan, ammo tahliliy yondashuv to'liq emas, dunyoqarash va kuzatuvlar cheklangan	17–25 ball
5.	Mavzu mantiqiy yoritilgan, jurnalistikaning ijtimoiy ahamiyati anglangan, ayrim tahliliy fikrlar mavjud	26–33 ball
6.	Muallif mustaqil fikr yuritgan, tahlil qilishga harakat qilgan, til va uslubdagi kamchiliklar kam	34–42 ball
7.	Mavzu mazmunan puxta ochilgan, fikrlar mantiqiy va izchil, tahliliy yondashuv yaxshi shakllangan	43–52 ball
8.	Ijodiy ish original yondashuv asosida yozilgan, tahlil	53–62 ball

chuqur va asosli, nutq madaniyati yuqori, uslubiy va imloviy xatolar kuzatilmaydi

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muovini taqdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarorining 1-ilova "Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida" Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. Mirziyoev Sh.M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" 4-jild. T. O'zbekiston, 2020

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 27-iyun matbuot va OAV xodimlari kuni munosabati bilan jurnalistlarga yo'llangan tabrigi <https://president.uz/uz/lists/view/5294>

4. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020.

5. Jumanova S. Jurnalistika (abituriyentlar uchun ijodiy imtihon qo'llanmasi) Ikkinchi nashr. T.: O'zJOKU MChJ, 2023.

6. Toshpo'latova N. Jurnalistika. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari – T., "O'zbekiston". 2019.

7. Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi Toshkent: G'afur G'ulom, 2009.

8. Fake News: Mediada dezinformatsiya. / N.Muratova, N.Toshpo'latova, G.Alimova. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020 y.

9. Fotojurnalistika [Matn]: o'quv qo'llanma / N.Qosimova [va boshq.]– T: "TURON-IQBOL", 2018.

10. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.

11. Jurnalistika. 10 jildlik to'plam. –Toshkent. "O'zbekiston" NMIU. 2019.

12. Meliboev A. Qirq beshinchi bekat – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.

13. Muratova N. Onlayn jurnalistika: nazariya va amaliyot // T. Qaenus media. 2019.
14. Rahmatullayeva I. Televideniye va radioda boshlovchi mahorati. T. "Mumtoz so'z", 2022.
15. Safarov A. Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T.: "Universitet", 2023.
16. To'xlieva N. Tahrir mahorati. – Toshkent: Bayoz, 2022
17. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
18. Media huquqi[Matn]: darslik / Nazira Qurbon, Karim Bahriyev. T. ; "Grand Inter Media". 2022.
19. Saidov H., To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B.120.
20. Qosimova N., Xidirov Q., Safarov A., Saidov H., Ortiqova Yu., Isomiddinova M., Do'simbetova N., Abduraxmonova M., Saidova M. Ixtisoslashgan jurnalistika. – T.: O'zbekiston NMIU, 2019.– B.784.
21. Xudoyqulov M., Jurnalistika va publitsistika, –T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2011. – B.188.
22. Obidov M. Farg'ona jurnalistikasi, –T.: "Sharq" aktsiyadorlik kompaniyasi., 2009. - B. 320.
23. Ortiqova Yu. Sport jurnalistikasi. –Toshkent. "MUMTOZ SOZ". 2016. 104b.
24. Safarov. A, Harbiy jurnalistika asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma/– Toshkent: — Muhr-press nashriyoti, 2022. – 272 b.
25. M. Nurutdinova. Internet OAVda multimedaviylik. T., 2022. B.205.
26. Audiovizual jurnalistika. VI jild. – T.: O'zbekiston, 2019.
27. Allamberganova P. Audiovizual jurnalistika. (Telejurnalistika asoslari). O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2022.
28. Zohidova Y. Televideniye va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o'rni(ijtimoiy vaziyat, jurnalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). Monografiya. – T.: Mumtoz so'z, 2022.
29. Zohidova Y. Zamonaviy xalqaro televideniye. O'quv qo'llanma. "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, 2023.